

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha Ma'rifat darsi-16

BAYONNOMASI

15.12.25 yil

Toshkent sh.


Qatnashganlar: Kafedra hodimlari va kafedrada tahsil olayotgan 6-kurs talabalari

Kun tartibi: «JADID BOBOLARIMIZ» mavzusida Kelajak soati o'tkazish.

Eshitildi: Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.

Talabalarga Turkiston o'lkasida "jadidchilik" harakatining vujudga kelish sabablari, uning vakillari tomonidan amalga oshirilgan tarixiy sa'y-harakatlar, bu

millatparvar vatandoshlarimizning ta'qib va mahv etilishining tub sabab hamda oqibatlari xususida ta'sirli ma'lumotlar berildi.




Jadid bobolarimiz millatni uyg'otish, uni ilm va ma'rifat bilan qurollantirish, shu asosda o'lkani ozod qilish, xalqning qonuniy huquqlarini qo'lga olishga qaratilgan g'oyalarini ta'sirli targ'ib etishning mumkin bo'lgan barcha yo'llarini qo'llashga urindilar. Ular bu ishni, avvalo, maktabni, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishdan

boshladilar. Ishni yangi avlodga zamonaviy bilimlarni o'rgatishdan boshladilar, chunki butun turmushni yangi bilimlar yordamidagina o'zgartirish mumkin bo'lar edi.

Jadidlar o'z g'oyalarini iloji boricha kengroq ommaga yetkazishning ikkinchi usuli, ya'ni minbar sifatida gazeta va jurnallar tashkil qildilar. Avval Chor hukumati, keyinchalik Sho'ro ma'muriyatining keskin qarshiligiga qaramay, ularning soni va tiraji – adadini ko'paytirib borishga urinishdi.

Jadidlar ommani uyg'otishning yana bir ta'sirli usuli sifatida teatr san'ati kuchi va imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni boshladilar. XX asr 10-yillarida o'zbek adabiyotida dramachilik jiddiy rivoj topdi.

Jadid namoyandalari, bundan tashqari, turkistonlik yoshlar dunyoning eng ilg'or davlatlaridagi ilm-fanni puxta egallab kelishlari, ularni xalq xo'jaligining barcha sohalarida qo'llab, o'lkani ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqishlarini o'ylab talabalarni xorijga, xususan, Germaniya oliy o'quv yurtlariga yo'lladilar.



Bugungi – Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasiga eng ustuvor masala sifatida e’tibor qaratilayotgani, farzandlarimizni yorug‘ kelajakni barpo etuvchi asosiy kuch sifatida eng zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga harakat qilinayotgani, buning uchun esa barcha hududlarda Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar bunyod etilayotgani, mamlakatimizda dunyoning eng ilg‘or oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etilayotgani, “El-yurt umidi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga o‘zbekistonlik talabalar dunyoning eng ilg‘or oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborilayotgani – ularning bari jadid bobolarimiz intilgan maqsadlarga erishish yo‘lida amalga oshirilayotgan tarixiy harakatlardir.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.

Shamansurova E.A.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari

bo‘yicha mas’ul, ass.:

Shayxova M.I.